

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITCH PALATASI
INV.№

KIM KO'P GUL O'STIRADI?

Dilbar opa Valiyeva maktabimizga rahbar bo'lib kelishlari bilan barchamizning hurmatimizni qozondilar. Chunki ko'pgina o'zgarishlarni amalga oshirdilar-da! Maktabimiz atrofini tozalab, boqqa aylantirdik. O'g'il bolalar qushlarga inlar yasashdi. Maqsuda opa Ahmedova, Farida opa Rajabekova, Oysha opa Sodiqova kabi ustozlarimiz bizga tabiatni sevishni, asrashni o'rgatishmoqda. Hatto gul o'stirish, kim ko'p qush ini yasash bo'yicha musobaqalashmoqdamiz.

Muslima TEMURXONOVA,
Zulayho MIRZAYEVA,

poytaxtdagi 197-maktabning 5-«B» sinf o'quvchilari

KURSAND QILISH QANDAY YAXSHI-YA!

Men barcha fanlarga qiziqaman. Ayniqsa, fizikaga mehrim bo'lakcha. Yaqinda ustozimiz Erkin Mo'minov muvaffaqiyatlarim uchun meni «Faxriy yorliq» bilan taqdirladilar.

Bu yutug'imdan ustozlarim, ota-onam juda mamnun bo'lishdi. Dunyoda yaxshi insonlarni xursand qilishdan quvonchli ish bo'lmasa kerak.

Dilnavoz ABDUVAHOBOVA,

Hamza tumanidagi 230-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!



O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2009-yil
20-aprel
N:16
(66713)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

ISSN – 2010-6092



QUVNOQLARNING CHEKSIZ QUVONCHI

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim, aslo...

Vatan qiyosi yo'q muqaddas dargoh. Uni tarannum etish zavqi yana-da maroqli. Ayniqsa, jajji qalblar Vatan haqida kuylaganlarida, borliq go'yo ularga jo'r bo'lgudek...

Kuni kecha Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasi Shayxontohur tumani xalq ta'limi bo'limi tomonidan «O'zbekiston Vatanim manim!» iste'dodli bolalar festivali o'tkazildi. Uni o'tkazishdan maqsad, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalarning ijodiy salohiyatini yana-da

oshirishdir. Tadbirda 25 ta guruhlar ishtirok etdi. Bolajonlarimiz o'zlarining qo'shiq, raqs va she'rlari bilan tomoshabinlar dillarini xushnud etishdi.

O'zbekiston Milliy Akademik drama teatri binosida bo'lib o'tgan bu anjumanda ishtirok etgan kichkintoylarimizning quvonchini ko'rib, quvondik. Kelajagimiz egalarining bilim poydevorini mustahkamlash yo'lida qo'ygan ilk qadamlari ularning Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatlari ifodasidir.

Axtamqul KARIM

Ushbu
sonda:

SABOQ'INGIZDAN
KO'NGLINGIZ
TO'LYAPTIMI?

2-betda

KICHIK POLVON
KATTA
MAYDONDA

7-betda

YAXSHI
NAVONING
MILLATI YO'Q

8-betda

Toshkentning 2200 yilligi oldidan

BILGAN SARI BILGIM KELAR

Ona O'zbekistonimiz poytaxti Toshkentning tarixiga oid manbaalarni o'qiganim sayin, u haqida yana-da ko'proq ma'lumotlarni bilib olyapman. Ularda yozilishicha, qadimda Toshkent atrofi baland va qalin devor bilan o'ralgan, «Choch» deb yuritilgan kichkina shaharcha bo'lgan ekan. Arablar uni «Shosh» hamda «Madaniyat ash shosh» nomi bilan tilga olganlar. XI asrdan u «Toshkand» deb yuritila boshlagan.

Toshkent yozma manbaalarda «Binkat» nomi bilan ham tilga olinadi. Binkat «Quyil shahar» degan ma'noni anglatadi. Mahmud Qoshg'ariy «Tarkan» degan nom bilan ham ataydi.

O'rta asrlarda Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i Binkat orqali o'tib, bu xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan. Bu davrda Toshkentda mis buyumlar, yog'ochdan yasalgan asbob-uskunalar, egar-jabduqlar, ip va ipak gazlamalar, joynomoz kabi hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Ayniqsa, Toshkentda yasalgan o'q-yoy butun sharqda «Kamoni Shoshiy» nomi bilan mashhur bo'lgan.

Pokiza ABDURAHMONOVA,
Yakkasaroy tumanidagi 328-maktabning 8-sinf o'quvchisi

**SABOG'INGIZDAN
KO'NGLINGIZ
TO'LYAPTIMI?**

Respublikamiz maktablarida fan o'yliklarining tashkil etilishi barcha fan o'qituvchilarining o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashishlariga turki bo'lmoqda. Darslarni interfaol uslubda o'tish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, ushbu fanga oid devoriy gazetalar va hatto jonli burchaklar tashkil etish orqali o'quvchilarning bu fanga qiziqishlari yana-da ortmoqda.



Yurtimizga ko'klam kelib, borliq yana-da chiroy ochdi. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanida joylashgan 167-maktabga ham shu kunlarda borsangiz, ko'rkidan bahri dilingiz ochiladi.

Boisi, har bir sinf o'quvchilari o'z maydonchalariga ekan gul ko'chatlari chamandek yashnab turibdi. Ularni qanday parvarishlashni esa o'quvchilar ustozlaridan yaxshi o'rganib olishgan-da!

Shu kunlarda barcha maktablarda bo'lgani kabi bu bilim maskanida ham biologiya fani oyli davom etyapti. 20 yildan buyon o'quvchilarga biologiya fanidan saboq berib kelayotgan Nigora Sobirovaning shu kunlarda ishlari juda ko'paygan. Har bir mashg'ulotini interfaol usulda, laboratoriya mashg'ulotlari asosida o'tmasa, bergan sabog'idan o'zining ko'ngli to'lmaydi. Darslari tugagandan keyin ham uyiga oshiqmaydi. Chunki maktab qoshidagi «Yosh biologlar» to'garagida uni o'quvchilar intizor bo'lib kutib turishadi-da. To'garak a'zolari sonining kun sayin orta borishi ustozni yangi-yangi izlanishlar sari ilhomlantiradi. Shogirdlari bir necha yillardan buyon fan Olimpiadasining tuman bosqichlarida faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelishayotgani ham bejiz emas. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas-da, axir! Chunki bu maktabda nafaqat yosh biologlar, balki fiziklar hamda kimyogarlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarga, laboratoriya jihozlariga boshqa maktab o'quvchilari ham havas qilishadi.

O'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yetarli bo'lgan bunday maktablarning ko'pligidan, u yerda Nigora opa singari fidoyi o'qituvchilar borligidan behad quvonamiz.

Aziz ustozlar, o'quvchilarga berayotgan sabog'ingizdan Sizning ham ko'nglingiz to'lyaptimi?

AZIZA

SHAMOLLARDAN O'ZADI

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va «Kamalok» bolalar tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan «Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar» festivalining Respublika bosqichi poytaxtimizning «Yoshlik sport» majmuasida bo'lib o'tdi. «Varraklar sayli» musobaqasida ishtirokchilar varraklarning eksperimental, hajmli laylaki varrak turlari bo'yicha bellashdilar.

Festivalda respublikamiz viloyatlari va Toshkent shahridagi bolalar ijodiyot markazi uylarining to'garak a'zolari ishtirok etishdi.

– Mening ismim Sunnatbek. Bu yerga Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidan kelganman. Musobaqada eksperimental (tajriba) varrak turi yo'nalishi bo'yicha qatnashib, birinchilikni qo'lga kiritdim. Erishgan yutuq'imda ustozimning



ko'magi katta bo'ldi, – deydi u biz bilan bo'lgan suhbatda.

Varraklar yo'nalishida Buxoro viloyati, Romitan tumani bolalar ijodiyot uyi o'quvchisi Karim Kamolov musobaqa ishtirokchilaridan o'zib ketdi.

– Musobaqaning laylaki varrak turida birinchi-



lardan bo'ldim, – deydi kattaqo'rg'onlik o'quvchi Habibulla Hakimov quvonib.

Shu kuni bolalarning varragi ularning orzulari kabi yuksaklarga intilib, shamollardan-da o'zib, ko'klarda sayr etdi.

Dilfuza XOLMATOVA

Bu ajib dunyo

Inson yuragining kattaligi uning mushtiga teng keladi. Bu hajm kattalarda 220-260 gramm tosh bosadi.

Bir daqiqa ichida bosh miyada 100.000 xil kimyoviy reaksiya sodir bo'ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqning miyasida 14 mlr. nerv hujayrasi mavjud bo'ladi. Bu raqam hech qachon o'smaydi; aksincha, 25 yoshdan so'ng kuniga 100 mingta hujayraga kamayib boradi.

**OG'IR
KO'PRIK**

...Mo'jazgina bo'lsa-da, lekin mustahkam qurilgan bu ko'priknining asosiy vazifasi katta bir qishloqni dunyo bilan bog'lash edi.

Qachon va kim tomonidan qurilgani noma'lum bo'lgan ushbu ko'priknining o'z «gardanidan» nelarni o'tkazmadi, deysiz?! O'tgan asrning 30-yillaridan buyon bu yerdan ot-aravalardan tortib, to yuk mashinalarigacha o'tdi. Bu yillar davomida qanchadan-qancha odamlar u yoqdan-bu yoqqa o'tib qaytmadi. Qancha yaxshi-yomonni ko'rmadi bu ko'hna ko'priknining! Kimdir uni o'z farzandlariga «Hayot ko'prigi» deb atasa, yana kimdir uni qishloqning «xaloskori»ga o'xshatar edi. Yana kimlardir uni qachonlardir buzib tashlash payida yurardi.

Xullas, hayotning barcha «achchiq-chuchugi»ni o'tkazgan bu qadim ko'priknining hamma davrda o'z vazminligi-yu, salobatini saqlab qoldi. Bejiz keksa kishilar o'rtasida nizo chiqsa, yoshi ulug'rog'i: «Sen ko'pni ko'rgansan, biroz bosiroq bo'lgin, sen axir katta, og'ir ko'priksan», deya ta'kidlamas ekan...

Obiddin MAHMUDOV



24-maktabning boshlang'ich sinf o'quvchisi
Dilfuza ARSLONOVA,

Bahordek beg'ubor kullib turibsiz.
Onajon, men sizga talpingan edim,
Oppog libos kiyib turgan emishsiz.
Tunov kun tushimda sizni ko'ribman,
Yashayman sog'inchlar ichida qolib.
Mehringiz dilimni tarzaga soldi,
Sog'indim, ichimda alanga olib.
Onajon, men sizni juda sog'indim,
Ko'z yoshlar to'kishar bildirmay sekin.
Ukalarim shod-u, lek ko'ngil g'amgin,
Qiyg'os gul ochibdi, go'yo yosh kelin.
Hovlimiz chetida u kekso o'rik,
Qushlar chug'urlashib ming usul qildi.
Yana bahor keldi sepini yoyib,
Yaproqlar shivirlab dardimni bildi.
Tabiat jonlandi, sabolar esib,
Yaprog'lar shivirlab dardimni bildi.

ARMON


3-maktabning ijodkor o'quvchisi

Muhayyo TO'LAGANOVA,

Negadir Tohtirjonning boshqa varrak uchirgisi kelmay qoldi...
qolgandi. Qamishning bir yog'idan qog'oziyam ko'chibdi.
Nihoyat, varrak Tohtirjoniga tegdi. Uning bir tomoni yaxshi ucha olmay
sindoshlarining og'zi ochilib qoladi.
Hali u varragini maktabga olib boradi. Keng o'yingohda uchirsa,
Hammasi zo'r bo'ldi. Tohtirjonning akasi borligi yaxshi-da!
Maqsudga o'ldi. U hilpirab baland uchar edi.
bela to'plandi. Varrak Sobiridan Sharifga, undan
Aka-uka shudgorga yetuncha, bir gala

To'g'ri-da, varrak dalaga yetguncha tomga yoki dov-daraxtga
ilimb qolsa, nima bo'ladi?

– Shudgoracha o'zim olib boraman, – deb qoldi.
Varrak chiroyli chiqdi. Tohtirjon varraka endi go'l cho'zgan edi, akasi:




deydi.
«O'ra» baho ham yetadi, «a'lo» baho qizlarniki,
shunday ko'chirib go'ya qoldi. Akasi unga
Tohtirjon Sobir akasining inshosini darslikdan
– Bo'pti.
– O'zgina dars qilishvormaysanmi?
– Kecha tayorlab go'yaganman.
– Qamish topish kerak.
– Endi, gog'oz, gaychi keltiraymi?
qirib tushirdi.
Tohtirjon akasining poyabzallig'iga ilashgan loyni
– Avval tufilimni tozalab go'yi!
– Aka, varrak yasab bering!

Hikoya

VARRAK

45-maktabning ijodkor o'quvchisi
Qunduz XOLMIRZAYEVA,

Derzam ortidan gortlar bo'toni,
Intzor kimsadek yig'lar uvillab,
Mening ko'zlarimda bahor suroni,
Qalbimda yonadi bir o't gurillab.



Daraxtlar boshini kelinchak misol,
Momiq go'llarda egar ohista,
Tomlarda yovorg'an sumalak timsol,
Ko'klammi orziqib kutar bir hisda.



Shahobiddin NE'MATILLAYEV,
23-maktabning
5-«A» sinf o'quvchisi



Akbar ODILOV,
27-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

Nashrga tayyorlaganlar:
To'lqin HAYIT, Ahmadjon RIXSIBOYEV, Feruza JALILOVA,
Ubaydullo PARPIYEV, Gulchehra ASHUROVA, Feruza ODILOVA, Ma'mura MADRAHIMOVA, Axtamqul
KARIM, Yusuf FAYZULLO, Nargiza ABDULLAYEVA, Umidjon HAYITOV, Zuhra MUHSIMOVA
Ushbu kitobchani tayyorlashda yaqindan ko'mak berganlari uchun «Yangiyo'l» gazetasi
tahririyatiga va xalq ta'limi bo'limi rahbarlariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

«Tong yulduzi»
Toshkent – 2009

16



2009-yil
Qishloq taraqqiyoti
va farovonligi yili



YANGIYO'LGA XUSH KELING!

Havoda behisob o'ynab tangasin,
El-yurtim boshiga to'kadi yoqut.
To'liqqan ko'ngillar kunday yayrasin,
Deydi-yu, quvonchga bo'ladi shohid.

Bepoyon dalalar, bog'lartim oppoq,
Turar oq libosga o'ralgan sukun.
Osmo gumbazidan bulutlar chanoq,
Bu kun o'kazmoqda o'zining hukmin.

KO'ZLARIMDA BAHOR SO'ROVI

Muhammadjon G'AZNABOYEV,
34-maktab rahbari



Qora bulut slynasini chok elgan,
Elni asrty orzusiga elitgan.
Xurtimni keng dunyolariga iantigan,
Ko'ksimdagi ofsiobimsan, Istiqol.
Kunda cheksiz quvonch kitar uyiga,
Xor-u do'stlar doim hozir to'yida.
Yashnab turgan Vatan ishqiy uyida,
Eng muqaddas kitobimsan, Istiqol.
Sen quvonchim, sen tashvishim, o'zligim,
Dardimni ham tushunguvchi so'zligim.
Jonim fido bo'lsin garo ko'zligim,
Sen go'zalam, mohitobim, Istiqol.
Mehring, sehring bu kun bag'ir ko'zinda,
Tanda mador, g'urur bag'ir so'zinda.
Xuragimning tub-tubida o'zingga,
Ataganim - xitobimsan, Istiqol!

ISTIQTOL

Qarasa, Dingo kechqurun yoggan yomg'irdan so'ng
- Qara, iting ortingdan ergashyapti, - dedi.
hamki, sindoshi unga:
Sobir uni ko'cha chetida kutib turardi. Nodir unga yetib so'rashgan edi.
Bir gal Nodir erta bilan maktabga borish uchun yo'l bo'yiga chiqdi.
paydo bo'lardi.



Nodir laycha itini kichikligidan bog'ib, katta qilgan
edi. U kichik quloqlari dikkayib, serjun dumini ikkillaib,
doimo Nodir atrofini gir aylanib o'ynardi. Bolakay u
bilan o'ynab sira zerikmasdi.
Nodir og'zidagi nasibasini jonivoraga qizg'annamay
uzatar, biror yegulik bermog'chi bo'lib:

QAHAR

24-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Hikoyati TO'RAQULOVA,

Sening issiq tashing, mehridon qalbing,
Meni sehrlaydi mudom o'ziga.
Kiprigimga surtay har bita garding,
Mudom shodon bogay elning ko'ziga.

Vatan deb yashamoq naqadar zavqli,
Axir shu tuprog'ku bizni jonimiz.
Shu aziz go'shada ulg'ayib o'sdik,
Xurakda endi yo'q hech armonimiz.

VATAN DEB YASHAMOQ NAQADAR ZAVQLI

SO'NGGI QO'NG'IROQ

Bizni tashlab ketdi bolaligimiz
Ortda qoldi maktab yillari, afsus.
Atrofdan jaranglar bir ma'yus qo'shiq,
Bu so'nggi qo'ng'iroq, so'nggi tanaffus.
Oxirgi qo'ng'iroq chalinib bu kun
Yurakni bir silki o'tib ketdi, goh.
So'nggi o'timchim-la undan so'radim,
Biroz chalinmay tur, so'nggi qo'ng'iroq.
Oxirgi qo'ng'iroq sadosi tindi,
Maktab quchog'idan ayrildik-ku biz.
U so'nggi mehrini bizga ilindi,
Ko'zida yosh ila ketar o'g'il-qiz.
Atrofdan jaranglar biz sevgan qo'shiq,
Hurlik qo'shig'i u, tuganmas qo'shiq.



Ulbaxt OQBO'TAYEVA,
17-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi

YURTIM BAHORI

Quyosh bobo nur sochdi,
Dalalar chiroy ochdi.
Dillardan g'ubor qochdi,
Bahor keldi, bahoroy!

Bosh ko'tardi maysalar,
Chiroylidir qanchalar.
Yurtim go'zal bunchalar,
Bahor keldi, bahoroy!

Shoira MAHKAMOVA,
19-maktabning 6-sinf o'quvchisi



Abduholliq MAMAROZIQOV,
24-maktabning 8-«V» sinf
o'quvchisi chizgan rasm



Aziz o'quvchilar!

Biz sizlarga har oyda bittadan kitob tayyorlab sovg'a ulashmoqdamiz. Maqsadimiz, sizlarning nafaqat kutubxonalariningizni boyitish, balki yangi do'stlar orttirishingizda ham ko'mak berishni ko'zlaganmiz. Bugun sizlarni Toshkent viloyatining maskanlaridan biri - Yangiyo'l tumanidagi tengdoshlaringiz va ularning ustozlari bilan tanishtiramiz. Xullas, Yangiyo'l da yangiliklar ko'p. Kitobchani o'qib chiqing, yangi do'stlar bilan tanishing!

Ulug'bek MUSTAFO,
29-maktabning ijodkor o'quvchisi

Ko'zmat aka chaynab turgan nomini yutish-yutmashini bilmay, qotib qoldi. — dedi ovozi qalitrab.
— Nega itimni bosib ketdingiz? Tushib bir chetga olib ham qo'yadingiz!
Nodirning ko'z o'ngida Dingo paydo bo'ldi. Ko'zlarini yoshladi.
o'g'ling unaga emasdi-ku? Sal yovvoylashib qopdimi?
— Ha, polvon, salomlashmayapsan? — dedi ajablanib. — Do'stim, bu gurning berardi. Shu on Nodirga ko'zi tushdi-yu:
to'ridagi ko'rpachada yastanib olib, bolishga yonboshlagan quyi dadasiga...
Oradan ko'p o'tmay, Ko'zmat aka ulamikiqiga mehmonga keldi. U xona va yig'lasa, Ko'zmat akaning qilmishidan shunchalik ajablanar, qabri kelardi. Nodir sariq junlari loyga belanib, qimir etmay yotgan itiga qanchalik achinsa Ko'zmat aka? Axir dadasining oshnasi-ku. U kishi shunchalik berahmimi? egasini tanidimmi? Qo'shimiz Ko'zmat aka.
— Iting o'lib qopti-ku, — dedi u Nodirning yarasiga tuz sepanday. — Mashina Sobir yetib keldi.
«Jiguli» to'xtamay o'tib ketdi. Nodir itning oldiga yugurib bordi. O'rtidan hozirgina o'ynoqlab turgan Dingo yerda toshday qotib cho'zilib yotardi.
Shu chog' nimadir mashinaga urildi. Nodir ne ko'z bilan ko'rsinki, — Dingo, qoch yo'ldan!
mashinasi g'izillab kelardi. Xavotirga tushgan Nodir baqirib yubordi.



Qarshisidan katta tezlikda «Jiguli» odamay.
— Qo'rqitma uni, — dedi xafa bo'lgan tosh o'tib, itni qaytarmog'chi edi, Sobir.
tayanib, asfalt ko'chaga o'tirib oldi. Nodir Dingo yurishdan to'xtadi, orqa oyog'lariga — Dingo, uyga qayt! — qichqirdi Nodir.
qolishi mumkin.
Izma-iz maktabga borsa, adashib u tomonga yugurib kelardi.
tasmaday yalitrab turgan asfalt ko'cha o'rtasida

**CHO'QQILARNI
KO'ZLAGAN BOLA**



Temur 3-sinfda o'qib yurgan kezlari, nemis tiliga qiziqib qoldi. Bu yoshda bolalarning turli sohaga qiziqishlari tabiiy. Avvaliga uydagilar ham uning qiziqishlariga uncha e'tibor berishmadi. Shunchaki havas, erta-indin tashlab yuboradi, deb o'ylashadi. Ammo Temurdagi qiziqishi, intilishi kuchli edi. U til bilishga katta ishtiyoq bilan kirishdi. Ustozlari Pernagul Xoljigitovadan, keyinroq esa Dilorom opa Isroilovadan saboq oldi. Temurning intilishlari nihoyat o'z samarasini berdi. O'tgan yili nemis tili bo'yicha Respublika olimpiadasining viloyat g'oliblikni qo'lga kiritdi.

44-maktab o'quvchisi Temur Akbarovning orzulari katta. U Toshkent tibbiyot akademiyasiga kirish uchun puxta hozirlik ko'rmoqda. Keyinchalik esa shu soha bo'yicha Germaniyada bilimini oshirmog'chi. Tabiatan tirishqoq Temurning orzulari oy kabi yorug' bo'lsin.

QO'LI GUL ZARDO'Z


Hakimani «Qo'li gul zardo'z qiz», deyishadi. Chunki u zardo'zlik mahoratini qunt bilan o'rganmoqda. Bu borada ustozlari Farida opa Bekmirzayeva shogirdiga bor mehri va bilimini bermog'chi.

1-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi Hakimaxon Mahmudovanning o'z qo'llari bilan tikkan ishlarini kuzatamiz. Do'ppi, choynakka g'ilof, yelpig'ich, yostiq jildlar, munchoqdan gulli bezaklar tushirilgan ishlarini ko'rib, dilimiz quv naydi.

Qo'li gul chevar qizga barakalla, mahoratingga ko'z tegmasin, deymiz.



**TIL BILSANG
— EL BILASAN**



Toshmuhammad aka Bolitboyeva chet tilariga bo'lgan qiziqish juda erta uyg'ongan edi. O'sha kezlari ustozlari Tursummuhammad aka Normatovning bir og'iz gaplari u kishining hayot yo'llarini belgilab berdi.
«Quning yaxshi. Chet tili o'rganishga harakat qil. Til bilsang — el tamiyasan», degan edilar. Bu gapni qulog'iga quyib olgan iqtidori shogird ixlos bilan til o'rganishga kirishdi. Chet tilar institutining fransuz tili fakultetini a'lo baholarga bitirdi. Ustozlariga bo'lgan havas u kishini maktabga yetakladi.
Toshmuhammad aka Yangiyo'1 tumanidagi 14-maktabda o'quvchilarga ta'lim berar ekanlar, har safar shu maktabda o'rgan o'quvchilik yillarini yodga oladilar. Qadrdon maktablardagi katta o'zgarishlardan quvonib, bugungi yoshlarga havas qiladilar.
O'quvchilarga fransuz tildan saboq berishning yangi uslublarini yaratadilar. Axir o'tiz uch yil bu fandan dars berishning o'zi bo'ladimi? Bundan tashqari, ular maktabda «Fransuz tili o'rganamiz» nomli to'garak tashkil etganlar. Shu yili tumanida o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi fransuz tili o'quvchisi» ko'rik-tanlovida ham ustoz g'olib bo'ldilar. Toshmuhammad aka nafaqat o'quvchilarning, balki yosh o'quvchi hamkasblarining ham ustozidir.

**YANGIYO'LDA
YANGILIK BOR**

MA'LUMOTNOMA

1926-yil 29-sentabrda tuzilgan.
Yangiyo'l tumanining umumiy yer maydoni 423,4 km. tashkil etadi. Aholisi 163 ming kishidan ortiq. Qishloqlar soni 10 ta.

QISQACHA TARIXI



Tumanda yuqori paleolit davriga oid «Qovunchi madaniyati» manzilgohi bilan birga, Niyozboshi qishlog'i yaqinida, Chirchiq daryosining o'ng qirg'og'ida Yo'g'ontepa xarobasi ham mavjud bo'lib, olimlar uni «Yog — Danfeganket», ya'ni sug'diycha «Muqaddas din ibodatxonasi» deb atashadi.

Darhaqiqat, o'rta asrlarda Choch vohasida bunday tepaliklar ko'p bo'lgan va shuning uchun ham VI- VII asrlarda Chochga «Minglab qasrlar mamlakati», deb yuksak ta'rif berilgan.

bo'yicha ta'lim-tarbiya bermogdalar. pedagog tarbiyachi «Uchinchi ming yillik bolasi» Dasturi muassasalarida 1800 nafar tarbiyalanuvchilarga 120 nafar ta'limi bo'limi tasarrufidagi 16 ta maktabgacha ta'lim uchun tarbiyachilar ham astoydil harakat qilimogdalar. Tuman xalq Endilikda kichikimtoyilarni aka-opalariaga munosib qilib tarbiyalash sirasiga kiradilar.

Maryam Nazarova sharafli kasblarini oqlab kelayotgan ustozlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi ko'krak nishondori Mustafqulov, «Shuhrat» medali sohibi O'g'lioy To'raqulova, Abdavali Darxonov, «Me'nat shuhrati» ordeni sohibi Uing'bek O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi sidqididan me'nat qilib kelayotgan o'qituvchilar xizmatlari katta. Tumanidagi o'quvchilarning bilimlari va iqtidorlari bo'lib o'rinlarni egallab kelishmogda.



musobaqalarida g'atnashib, faxrli «Umid nihollari» o'tkazilayotgan viloyat miqyosida bo'yicha tuman erkin kurash voleypol, milliy va futbol, basketbol, oigan o'quvchilar yaxshilab o'rganib sport sirlarini qiladilar. Ustozlardan Jongorayev ustozlik murabbiyi Ozod sport maktabi o'smirlari yotiradigan o'quvchilarga tuman bolalar va sport bilan shug'ullanishni

Sport bilan shug'ullanishni yotiradigan o'quvchilarga tuman bolalar va sport maktabi o'smirlari

VILOYATNI AYLANSANGIZ...

Bir fursat topib, o'zingiz yashab turgan tuman, shahar, viloyatlarni aylansangiz, yangi qurilgan baland va ko'rkam binolarga



ko'zingiz tushadi. Yangi ta'mirdan chiqqan ko'p qavatli maktablarda o'quvchilarning emin-erkin bilim olayotganlariga guvoh bo'lasiz. Bu borada Yangiyo'l

tumanidagi maktablar ham peshqadamlikni qo'ldan bermayapti. O'zbekiston Respublikasining «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy Dasturi» asosida tuman Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 58 ta maktab zamonaviy binolar ko'rinishiga ega bo'ldi. Hozirda ushbu maskanlarda ta'lim olayotgan 27009 nafar o'quvchilarga 1806 nafar o'qituvchilar bilim berib kelmoqdalar. Tumanda nafaqat maktablarda, balki maktabdan tashqari o'quv muassasalarida, o'quvchilar ijodiyot markazlarida ham doimo o'quvchilar gavjum. Hayotxon Shahromova rahbarlik qilayotgan o'quvchilar ijodiyot markazida bolalar ijodkorligining badiiy nafosat, badiiy havaskorlik, estetik san'at va texnik yo'nalishlari bo'yicha 15 ta to'garak faoliyat olib bormogda.

Mazkur to'garaklarga 720 nafar iqtidorli o'quvchilar jalb etilgan.



Quyidagi jaffi o'rdakcha rasmini ham jon-u-dilli. Ular rasmini chizish maktabiga g'atmaydi. Jonivorlarni juda yaxshi ko'radi, Ikki yildirki, u tumandagi 5-sonli bolalar san'at Rassomlikka havasi bog'cha yoshidanog uyg'ongan. Yulya Kozlova bu yil birinchi sinfga g'adam qo'ydi.



YULYA JONIVORLARNI SEVADI

chizgan. Unga baho berish esa Sizdan, aziz san'atsevar bolajonlar. Moviy ko'zlar ma'vus mana bu g'izalogni rasmini ham Matuna beqiyos ekanligini yosh rassom qizimiz ko'p takrorlaydi. kiritayotgan bu yutuqlarida ustoz Shohsanam Qalandarovaning mehnatlari tanlovining tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha g'olibasi bo'ldi. Qo'lga Yaqinda Matuna tuman miqyosida o'tkazilgan «Iqtidorli bolalar» ko'rk-



Musavirning mahorati ham ana shunda-dal! olamiga g'arq bo'lasiz. haqida o'ylab, beixtiyor xayolot nimalar demogchi ekanligi rassom qiz mo'yqalami orqali chizgan rasmlarini ko'rsangiz, «B» sinfida tahsil oladi. Uning I-umunta lim o'rta maktabining 8-Matuna Nagmatova tumandagi




MA'VUS? KO'ZLARI NEGA

OLIMJON OLIM BO'LMOQCHI

Mehridaryo ustoz Xoldor aka Odilboyev aniq fanlarning chin ma'nodagi shaydolari sirasiga kiradigan insonlardan. U kishining matematika, fizika fani va ularning mo'jaz olamiga qiziqishlari beqiyos. O'z vaqtida olim bo'lish, ko'plab kashfiyotlar qilishga intilganlarining boisi ham shunda bo'lsa kerak. Beshinchi farzandlari tug'ilganda, u kishi yaxshi niyat bilan Olimjon deb ism qo'yadilar. Bu ismni qo'yib, kelajakda o'g'illari olim bo'lishni orzu qilgan bo'lsalar, ne ajab?!

Ayni chog'da Olimjon Odilboyev kashfiyotlar olamiga dadil kirib kelayotgan yosh ixtirochilardan biriga aylandi. Bugungi kunga kelib, u qishloq sharoitiga moslashgan gidrotexnik qurilma ixtiro qilib, «Kelajak ovozi» Respublika ko'riktanlovining 2008-yilgi g'olibiga aylandi. Uning aytishicha, ota-bobolarimiz ekin maydonini sug'orishda suv charxpalaklaridan foydalanishgan. Keyinchalik suv nasoslari kashf qilingan bo'lsa-da, ularga yoqilg'i ko'p sarflanar edi. Olimjon Odilboyev ixtiro qilgan qurilma esa kamchiqimligi bilan ahamiyatli. U ayni paytda Xalqobodidagi 36-maktabda informatika darsidan sabog bermogda. Yosh olim she'rlar ham yozib turar ekan.

Aziz bolalar! Siz ham ota-onasining niyatini amalga oshirayotgan akalaringiz safiga qo'shiling!



MUZAFFAR ZAFAR QUCHDI

Muzaffar 18-umunta lim o'rta maktabining 9-sinfida o'qiydi. Yoshligidan belbog'li kurashga mehri baland. Bu qiziqish uni tajribali murabbiy Abdug'ani aka Komiljonov rahbarlik qiladigan milliy kurash to'garagiga yetakladi.

Tirishqoq, chaqqon murabbiy ko'rsatmalarini bekam-u ko'st bajarishi bilan tengdoshlari orasida ajralib turuvchi Muzaffar o'tgan 5 yil ichida kurash sirlarini puxta o'rgandi. 2009-yili belbog'li kurash bo'yicha «Umid nihollari» musobaqasining viloyat bosqichida faxrli II o'rinni egalladi. Farruh Qurbonov, Sunnat Abdurahimov, G'ulom Orifjonov, Abdavali Oxunboboyev va Abror Ashiraliyev kabi jamoadoshlari mazkur musobaqada hududiy bosqich g'olibi bo'ldilar.

Muzaffar Rahmatullayev va uning sportchi do'stlariga kelajakda yuksak shohsupalar nasib etishini chin dildan istadik.



KICHIK POLVON KATTA MAYDONDA

Siz suratda ko'rib turgan tengdoshingiz Samarqand viloyati-ning Bulung'ur tumanida yashaydi. Ularning oilasini bulung'urliklar «Sportchilar oilasi» deyishadi. Botir aka o'g'li Jahongirni 5 yoshidanoq sportning erkin kurash turiga qiziqtirib, sport olamiga boshlagan. Kichik polvon otasining ko'rsatmalariga, sportchi kun tartibiga rioya qilishni o'rgandi. Kurash darslarining hadisini oldi. Ko'plab musobaqalarda qatnashib, medallar sohibiga aylandi. Jahongir shu kungacha yurtimizning bir qator shaharlarida tengdoshlarimiz orasidagi musobaqalarda faxrli 1- o'rinni egallab kelmoqda. Hatto xorijda bo'lib o'tgan ochiq chempionatlarda ham shohsupadan joy olmoqda.


Yaqinda yurtimiz o'quvchilarining Respublika musobaqasi «Umid nihollari»ga tayyorgarlik bo'yicha viloyatimizda so'nggi bosqich bellashuvlari yakunlandi. Jahongir bu bellashuvlarda ham g'olib chiqdi. Endi u Gulistonda bo'lib o'tadigan bahslarda o'z omadini sinab ko'radi.

Ishonamiz, «Umid nihollari»da Jahongirning ko'ksini shoda medallar bilan to'ladi!

Shahlo IMOMOVA,
filologiya va san'atga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining 8-«A» sinf o'quvchisi

«ALPOMISH»DA BAYRAM

Abdulla kichik polvon. Uning bobosini Surxon elida nomdor polvon ekanligini yaxshi bilishadi. Abdullaning bobosi hozir 80 yoshdan oshgan. Ammo hali-hanuz kurash musobaqalariga, tantanalariga borishni kanda qilmaydi.



Havas bilan nabiralarga birma-bir polvonlar ismini qo'yadi. Yaxshi niyatli bobo bir necha kundirki, nabirasiga sizni katta bayramga olib boraman, deya va'da beradi. Kichik polvon Abdullajon ham bunday bayramlarni tomosha qilishni yoqtiradi. Katta polvon bo'laman, deya bobosiga qo'shilib duoga qo'l

Biz ham elimizning katta polvoni Abdulla Tangriyevni katta maydondagi katta yutug'i bilan qutlaymiz! Yurtimizda uning izdoshlari ko'payishiga umid qilamiz.



ochadi. 11-aprel kuni erta tongdanoq bobosidan avvalroq uyg'ongan jajji polvonjon bayramga shoshiladi:

– Bobojon, bo'la qoling, Abdulla polvonni hammadan avval ko'rgim kelyapti. U qanday mashinada kelarkin-a? Abdulla polvon bilan meni tanishtirib qo'yasizmi?

Bobosi esa kurashga kundan-kunga mehr qo'yib borayotgan Abdullaning zavqidan suyunadi:

– Yura qol, bolam, bugun albatta Abdulla Tangriyevning qo'lini olasan. Sen ham yillar o'tib mashhur polvon bo'lasan, deb yana duo qildi bobosi. Kurash bayrami oldidan ular Al-Hakim at Termiziy bobomizning yangidan ta'mirlangan yodgorlik majmuasini va boshqa tarixiy qadamjolarini ziyorat qildilar. Shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan bunyodkorlik ishlarini ko'rgan bobosi yurt obodligidan boshi ko'kka yetdi. Ayniqsa, «Alpomish» stadionidagi kurash bayramida bo'lajak polvonjon o'zbek elining iftixori, dzyudo bo'yicha XXIX Pekin Olimpiadasi kumush medali sovrindori Abdulla Tangriyevni ko'rgani zo'r bo'ldi-da! Musobaqa oldidan maydonda kuy-qo'shiqlar yangradi. Stadion bo'ylab xalqaro musobaqa bayrog'ini ko'tarib o'tish va mehmonlarni qutlashdek sharaflil vazifa Abdulla

M
A
K
T
A
B

C
H
E
M
P
I
O
N
I



Namangan viloyati, Pop tumanidagi 38-maktabning 7-sinf o'quvchisi Fazilat Mirzayevaga bugun ko'pchilik tengdoshlari havas bilan qarashyapti. Chunki u maktab chempioni bo'lib, bilim dargohining faxriga aylandi.

